


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar - oktabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar- oktabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **18,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
 ■ O‘rmon xo‘jaligi
 ■ Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



140

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 632

Ishlab chiqarish sanoati

15

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

46

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 3 833 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 113,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,8 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 102,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 107,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 121,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2 %) kuzatildi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




7,5 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




11,5 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar



14,3 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



37,5 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




6,0 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni





Xususiy korxonalar





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 1 818 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 462 taga yoki 34,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 651 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 367 taga yoki 28,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 476 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107 taga yoki 18,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 14 174 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 751 taga yoki 24,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 460 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 442 taga yoki 22,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 795 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 406 taga yoki 17,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra 229 tani tashkil etib, ulardan 221 tasi yoki 96,5 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 21 taga yoki 10,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida Jizzax viloyatida 23 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



102

yashash bo'yicha xizmatlar



1 367

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 469 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 18,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 8,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,9 %) o'sishidir.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	76	115	181	192	221
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5	18	28	27	37
Sanoat	59	66	104	109	123
Qurilish	2	3	9	8	11
Savdo	4	18	21	29	27
Tashish va saqlash	3	3	5	4	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	1	5	4	3
Axborot va aloqa	1	1	3	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	1	2
Boshqa turlar	2	5	6	7	9

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

■ O'sish sur'ati ■ 2021- y. ■ 2020- y.



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Jizzax viloyati	221	80	141
Jizzax shahri	70	46	24
tumanlar:			
Arnasoy	7	4	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	21	14	7
Sharof Rashidov	19	12	7
Do'stlik	7	4	3
Zomin	16	8	8
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	31	24	7
Yangiobod	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 70 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,7 %), Forish tumanida 31 ta (14,0 %), G'allaorol tumanida 21 ta (9,5 %), Sharof Rashidov tumanida 19 ta (8,6 %), Zomin tumanida 16 ta (7,2 %), Yangiobod tumanida 13 ta (5,9 %) hamda Zafarobod va Baxmal tumanlarida 10 tadan (4,5 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (28,9 %), Sharof Rashidov (15,4 %), G'allaorol (8,5 %), Zomin (8,0 %), Forish (7,0 %), Baxmal (6,2 %), Zarbdor (4,8 %), Paxtakor (4,4 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,8 %), Arnasoy (3,4 %), Zafarobod (3,0 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar- oktabr oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (25,8 %), Sharof Rashidov (14,0 %), G'allaorol (10,3 %), Zomin (8,5 %), Baxmal (8,0 %), Forish (7,2 %), Zarbdor (5,1 %), Do'stlik (4,8 %), Paxtakor (4,7 %), Mirzacho'l (3,6 %), Arnasoy (3,3 %), Zafarobod (2,4 %) va Yangiobod (2,3 %) tumanlari ulushiga ega.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Jizzax shahrida (34,4 %), Sharof Rashidov (19,1 %), Zomin (7,0 %), Baxmal (6,4 %), G'allaorol (5,8 %), Forish (5,7 %), Do'stlik (4,3 %), Zarbdor (4,5 %), Arnasoy (3,3 %), Mirzacho'l (3,0 %), Paxtakor (3,0 %), Zafarobod (1,9 %) va Yangiobod (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar - oktabr oylarida, birlikda)



2021- yil yanvar- oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (28,4 %), G'allaorol (18,9 %), Paxtakor (15,1 %), Sharof Rashidov (14,3 %), Zarbdor (6,5 %), Zomin (5,3 %), Do'stlik (3,4 %), Baxmal (3,1 %), Mirzacho'l (2,9 %), Zafarobod (0,8 %), Yangiobod (0,7 %), Forish (0,4 %), Arnasoy (0,2 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yil yanvar - oktabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot - ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24